

SINF RAHBARLIK SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR



*Abduvohid BUDANOV,
Andijon shahridagi Prezident maktabining
5-green sinfi rahbari, tarix fani o'qituvchisi*

Sinf rahbar maktabning tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglaridan biri bo'lib, o'ziga biriktirilgan sinf o'quvchilarining amalda belgilangan ta'lim va tarbiya olishlarini tashkil etadi. Sinf o'quvchilarining ma'naviy va ma'rifiy tarbiyasini tashkil etishda o'qituvchilar, tarbiyachilar, psixolog, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbariyati, mahalla, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, huquq-tartibot idoralari, maktabning jamoatchilik komissiyasi, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari, ijodiy uyushmalari hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Sinf rahbarlar tarbiyaviy ishlarni asosan "Ma'naviyat va ma'rifat soati"da olib borishadi. Ta'lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy soatlar ham yaxlit tarbiyaviy usullar, ta'sirchan vositalar yordamida amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sinf rahbarlar ushbu tarbiyaviy soatni o'tkazishga doir aniq ish rejaga ega bo'lishi lozim. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi zamonaviy metod va modullarni qo'llash tavsiya etiladi. Shuningdek, tarbiyaviy soatlarda barcha o'quvchilarning faol bo'lishiga erishish, mavzu mohiyatini ochib berishda ko'proq o'quvchilar qatnashishiga urg'u berib, sinf rahbar tahlil qiluvchi, xulosani taqdim etuvchi, kuzatuvchan bo'lishi kerak.

Sinf rahbarning faoliyati samaradorligi har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlash, ijodiy shaxsni shakllantirish va uni bilim, ijodiy va ijtimoiy mehnat faoliyatiga tayyorlash darajasi bilan belgilanadi. Shunday ekan, sinf rahbar o'z faoliyatining eng muhim yo'nalishi sifatida ijodiy shaxsni tarbiyalashga intilishi kerak. Sinf rahbar bugungi kunda doimo rivojlanib borayotgan, o'quvchilar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollarga javob izlaydigan, fikrlaydigan o'qituvchidir. Bunday o'qituvchi yangi bilimlarga va ma'lumotlarga ochiq bo'lib, o'quvchilarning

rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, ularning hayotda munosib o'rin egallashiga ko'mak beradi. Ya'ni sinf rahbar o'quvchiga nafaqat atrofdagi dunyo haqida bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallashga, balki hayotga moslashishga, o'z qobiliyatlarini kashf etish va namoyon etishga yordam beradigan murabbiy, do'st, himoyachi, yordamchi hamdir.

Sinf rahbar har bir o'quvchida o'ziga xos, betakror shaxsni ko'ra biladigan dono pedagogdir. U har bir o'quvchini pedagogik diagnostika asosida chuqur o'rganadi, ular bilan munosabatlarni uyg'unlashtiradi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanib o'quvchilar jamoasini shakllantiradi.

Andijon shahridagi Prezident maktabi misolida olinsa, sinf rahbarlar va tarbiyachi-pedagoglar uchun o'quvchilar bilan ishlashda tavsiya etiladigan shu kabi ilg'or uslublar amaliyotga muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda.

Ta'lim maskanida sinf rahbarlar tarbiyaviy ishlarni asosan "Ma'naviyat va ma'rifat soati" amalga oshirishini inobatga olib, sinflar kesimida mazkur soatlarda o'tiladigan **mavzular rejasini aniq tuzib** olingan. Ushbu mavzular har bir sinfning yosh toifasi va egallashi lozim bo'lgan ko'nikmalaridan kelib chiqib tartiblangan. Mavzularga doir ko'rgazmalar, slayd va videoroliklar, infografikalar mashg'ulotlar ta'sirchanligini oshirmoqda.

O'quvchining ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish orqali har bir o'quvchini pedagogik va psixologik diagnostika asosida chuqur o'rganib, o'quvchini shaxsiy rivojiga ko'mak berish yo'nalishi belgilab olingan.

Pedagogik tavsifnoma (pedagogik feedback) -o'quvchining o'quv choragi mobaynida o'zlashtirish ko'rsatkichlari, "soft skills" ko'nikmalari va jamoat ishlaridagi faolligi xususida sinf rahbarning tahliliy ma'lumot varagi bo'lib, uning yordamida ota-onalar o'z farzandining ta'lim va tarbiya jarayonidagi holati haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Ushbu tahliliy ma'lumotning o'ziga xos jihati shundaki, o'qituvchi ota-onaga farzandini qaysi jihatini rivojlantirishi, tarbiya jarayonida nimalarga e'tibor qaratishi haqida tavsiya berib, birgalikda ishlash bo'yicha takliflar rejasini taqdim etadi, bunda tomonlarning mas'uliyati aniq belgilangan

"Ma'naviyat va ma'rifat soati" da o'quvchilarning muayyan muammolarga o'z nuqtayi nazarini asosli dalillab, himoya qilishni rivojlantiruvchi **"Nuqtayi nazarining bo'lsin" uslubi**, jamoaviy hamkorlikni kuchaytiruvchi **"Birgalikda o'qiymiz" metodi**, ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va bu maqolalarning muhokamalariga bag'ishlangan **"Erkin fikrlash saboqlari" singari** usullardan foydalanilmoqda.

O'tgan o'quv yilida men rahbarlik qilgan sinf o'quvchilari maktabni tamomlab, mustaqil hayotga yo'l oldi. Faoliyatim mobaynida o'quvchilarni eng yaqin do'sti, maslakdoshi sifatida ularning har birini o'ziga xosligi va kelajakdagi maqsadlariga qarab tarbiyaviy ishlarni amalga oshirdim.

O'quvchim Valijonov Dilyorbek 35-Xalqaro Informatika olimpiadasi (IOI-2023) da bronza medalini qo'lga kiritganligi, sinf rahbar sifatida meni juda quvontirdi. O'quvchining taqdiri, shaxs sifatida rivojlanishi va insoniy fazilatlarni shakllantirishda sinf rahbarning mas'uliyati, ota-ona mas'uliyatidan kam emas. Shunday ekan, o'quvchining muvaffaqiyatida shaxsiy javobgarlikni har doim his qilgan, o'quvchilarni manfaati uchun harakat qilgan sinf rahbarning mehnati aks etadi. Sinf rahbar o'z o'quvchilarining o'qishini fan o'qituvchilari bilan uyg'unlashtiradi, o'quvchilari ulg'aygani sari o'z maslahatlari bilan ularni yo'naltirib boradi. Shuning uchun o'quvchilar maktabni bitirib, mustaqil hayotga qadam bosgan bo'lishsa-da, sinf rahbarlari bilan doimo aloqada bo'ladi.